



SURXONDARYO VILOYATIDA UCHRAYDIGAN QON KASALLIKLARI, ULARNING SABABLARI VA PROFILAKTIKASI

Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabasi,

sardorboboyorov020@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6036446>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

qon kasalliklar,
gematologiya, leykoz,
leykosit, eritrosit,
talasemiya.

ANNOTATSIYA

Qon aylanish sistemasi odam tanasida eng muhim sistemalardan ekanligi qadimdan ma'lum. Bu to'g'risida qadimdam juda ko'plab farazlar va ularda uchraydigan ko'plab kasalliklar borligi haqida ma'lumotlar mavjud. XXI asrda diagnostikaning rivojlanishi o'laroq qon aylanish sistemasi a'zolari, qonning tuzulishi va undagi ko'plab kasalliklar aniq bo'ldi. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri hisoblangan qon kasalliklari, ularning turlari, uchrashi sababi, davolash va profilaktikasi haqida so'z boradi.

Kirish. Qon — odam va umurtqali hayvonlarning qon aylanish sistemasida aylanib yuradigan suyuq to'qima, hujayra va to'qimalarga yetib borib, ularning hayot faoliyatini hamda fiziologik funksiyalarining bajarilishini ta'minlaydi. Eritrotsitlarning tarkibidagi gemoglobin qonga qizil rang beradi. Qonning tarkibi, osmotik bosimi va aktiv reaksiyasi (rN) deyarli o'zgarmaydi. Qon organizmda xilma-xil vazifalarni bajaradi: u hujayralarga kislorod yetkazib beradi va karbonat angidrid gazini olib ketadi (nafas funksiyasi); ovqat hazm qilish a'zolaridan oziq moddalarni butun organizmga tarqatadi (oziq moddalarni tashish funksiyasi); moddalar almashinuvi mahsulotini chiqarish a'zolariga (buyrakka) olib boradi. Qon a'zolarining gumoral aloqasini yuzaga chiqaradi, u gaz almashinuvi, nafas, suv

tuz almashinuvi, kislota-ishqor muvozanatida ishtirok etadi. Qonda antitoksinlar, lizinlar va antitelolar borligi, shuningdek, leykotsitlar mikroorganizmlar va yot jismlarni qamrab yutish xususiyatiga ega bo'lganligi tufayli qon organizmni zararli moddalar va yot jismlardan himoya qiladi. U gavda trasini doim bir maromda saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Odamlarda 5,2 l cha qon bo'ladi. Qon suyuq qism — plazma (55—60%) va shaklli elementlar (40—45%) dan tashkil topgan. Qonning shaklli elementlari qon yaratish a'zolarida ishlanadi, qon va qon yaratish a'zolari — qon yaratish sistemasini tashkil etadi.

Qon maxsus mexanizmlar orqali regulyatsiya qilinadi, shuning uchun sog'lom odam qonining tarkibi o'zgarmaydi. Organizmdagi har qanday o'zgarishlarga nisbatan qon javob reaksiyasi qaytaradi, ya'ni o'z tarkibini o'zgartiradi. Ayrim



kasalliklarni, xususan, qon sistemasi kasalliklarini aniqlashda qon tarkibining o'zgarishi muhim ahamiyatga ega.

Qon plazmasi vitaminlar, fermentlar, tuzlar va moddalar almashinuvining oxirgi mahsulotlarini saqlaydi. Plazmaga erigan oqsillar, jigar hujayralari va retikuloendotelial sistema hosil bo'ladi. Plazma oqsillari transport vazifasini bajaradi, kislota-ishqor muvozanatini tartibga solib turadi.

Qon ning shaklli elementlari asosan eritrotsitlar, leykotsitlar va trombositlarlem iborat. Qon kasalliklari, qon sistemasi kasalliklari — periferik qon va qon yaratuvchi a'zolarining shikastlanishi bilan kechadigan kasalliklar guruhi. Qon kasalliklarining kelib chiqish sabablari va belgilari xilma-xil, lekin ularning hammasida ham qon hujayralarining ishlanib chiqishi, funksiyalari, organizmda taqsimlanishi va boshqa ko'rsatkichlari buziladi. Bu o'zgarishlar qon yaratilishini idora etadigan nerv-endokrin sistema funksiyasi hamda boshqa a'zolar (me'da, jigar) faoliyatiga, organizmning irsiy xususiyatlarini belgilovchi gen apparatiga bog'liq. Qon kasalliklariga olib keladigan jarayonlar mexanizmi murakkab va xilmaxilligi sababli Qon kasalliklarini shartli ravishda patogenetik xususiyatlari va klinik belgilariga qarab leykozlar, kamqonliklar va koagulopatiyalarga ajratiladi. asosan, qizil qon sistemasi kasalliklari, oq qon sistemasi kasalliklari, trombositlar (qon plastinkalari)ning kasalliklari tafovut qilinadi. Bularning kelib chiqishida qon sistemasida ro'y beradigan aplastik, giperplastik o'zgarishlar va qon yaratilishining buzilishiga olib keladigan boshqa patologik jarayonlarning ahamiyati katta.

Qizil qon sistemasi kasalliklari. Bunga qizil qon shaklli elementlari — eritrotsitlar kamayishi bilan kechadigan turli xil

anemiyalar, ularning ortiqcha ishlanib chiqishi bilan ifodalanadigan eritremiyalar, oq qon sistemasi kasalliklariga turli xil leykozlar, ko'p sonli miyeloma kasalligi, Xojkin kasalligi (limfogranulema-toz), limfosarkoma, retikulosarkoma va boshqa kiradi.

Trombositlar kasalliklari ko'mikda megakariotsit hujayralar yoki trombositlar faoliyatining susayishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Bularga idiopatik trombositopenik purpura, Glansman xastaligi kiradi. Qon kasalliklari birbiridan farq qilsa ham, lekin ma'lum bir qonuniyat bilan avj olib borib, organizmdagi talaygina a'zolar faoliyatining izdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Mavzuning dolzarbligi. Barchamizga ma'lumki, XXI asr axborot texnologiyalar asri hisoblanadi. Aynan axborot texnologiyalar rivoji barcha sohalarning jadal rivojlanishiga olib keldi. Bular qatorida tibbiyot yetakchi o'rinda turadi. Sababi hozirgi vaqtda tibbiyotni jihozlar va texnikalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir tibbiyot bo'ginlarida naf keltirmoqda. So'ngi yillarda Surxondaryo viloyatida eng ko'p uchraydigan kasalliklar sifatida yurak qon-tomir va qandli diabet yetakchi o'rinni egallamoqda. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari ko'p uchrashining sababi sifatida juda ko'plab shifokorlarimiz aynan viloyatdagi ob-havo, to'g'ri ovqatlanmaslik ayniqsa go'sht mahsulotlarni ko'p iste'mol qilish deb e'tirof etilmoqda. Qon-tomir kasalliklari jumladan hozirgi kunda eng ko'p uchraydigan gematologik kasalliklar temir tanqislik anemiyasi, leykoz, trombositopeniya va boshqa kasalliklar Surxondaryo viloyatida ko'p uchramoqda.

Mavzuning ilmiy asosi. Qon sistemasi kasalliklari — periferik qon va qon yaratuvchi a'zolarining shikastlanishi bilan kechadigan kasalliklar guruhi. Qon



kasalliklarining kelib chiqish sabablari va belgilari xilma-xil, lekin ularning hammasida ham qon hujayralarining ishlanib chiqishi, funksiyalari, organizmda taqsimlanishi va boshqa ko'rsatkichlari buziladi. Bu o'zgarishlar qon yaratilishini idora etadigan nerv-endokrin sistema funksiyasi hamda boshqa a'zolar (me'da, jigar) faoliyatiga, organizmning irsiy xususiyatlarini belgilovchi gen apparatiga bog'liq. Qon kasalliklariga olib keladigan jarayonlar mexanizmi murakkab va xilmaxilligi sababli Qon kasalliklarini shartli ravishda patogenetik xususiyatlari va klinik belgilariga qarab leykozlar, kamqonliklar va koagulopatiyalarga ajratiladi. Asosan, qizil qon sistemasi kasalliklari, oq qon sistemasi kasalliklari, trombotsitlar (qon plastinkalari)ning kasalliklari tafovut qilinadi. Bularning kelib chiqishida qon sistemasida ro'y beradigan aplastik, giperplastik o'zgarishlar va qon yaratilishining buzilishiga olib keladigan boshqa patologik jarayonlarning ahamiyati katta.

Qizil qon sistemasi kasalliklari. Bunga qizil qon shaklli elementlari — eritrotsitlar kamayishi bilan kechadigan turli xil anemiyalar, ularning ortiqcha ishlanib chiqishi bilan ifodalanadigan eritremiyalar, oq qon sistemasi kasalliklariga turli xil leykozlar, ko'p sonli miyeloma kasalligi, Xojkin kasalligi (limfogranulema-toz), limfosarkoma, retikulosarkoma va boshqa kiradi.

Trombotsitlar kasalliklari ko'mikda megakariotsit hujayralar yoki trombotsitlar faoliyatining susayishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Bularga idiopatik trombotsitopenik purpura, Glansman xastaligi kiradi. Qon kasalliklari bir-biridan farq qilsa ham, lekin ma'lum bir qonuniyat bilan avj olib borib, organizmdagi talaygina a'zolar faoliyatining izdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot va natijalar. Gematologiya dars sikli davomida o'rganishlarim natijasiga ko'ra Surxondaryo viloyatida 2021-yil yanvar oyidan 1 – may holatiga ko'ra eng ko'p uchraydigan kasalliklar ro'yxatida temir tanqislik anemiyasi (69,3%), trombotsitopeniya (3,9%) leykozlar umumiy (turlar bo'yicha emas) umumiy aniqlangan kasalliklarning (3%), talasemiya darajalari bo'yicha (1,15%), gemofiliya (0,9%) ni va boshqa kasalliklar uchramoqda. Aynan talasemiya B-guruhi bo'yicha Surxondaryo viloyatida 3 nafar bemor ro'yxatda turarkan. Ular jismoniy rivojlanishdan ortda, mushaklar atrofiyasi, kaxeksiya a'zolar gipotrofiya uchragan.

Xulosa. Surxondaryo viloyatida aynan bu kasalliklar ko'p uchrashining sababi sifatida yaqin qarindoshlar bilan turmush qurgan oilalar birinchi o'rinda turadi. O'rganishlardan shuni anglash mumkinki, aynan Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Muzrabot va Denov tumanlarida ushbu kasallik eng ko'p qayd etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nadjimitdinov S.T. "Klinik gematologiya asoslari" 1998-yil Toshkent shahri
2. Agranenko V. A., B. A. Xramov S. M., Jerebsov L. Ye., Komponentnaya gemoterapiya, T., 1995;
3. Petrov V. N., Baxramov SM., Farmankulov X. K., Jelezodefitsitnie anemii, T., 1995
4. Uchqun o'g'li, B. S. (2021). BLOOD DISEASES IN SURKHANDARYA REGION, THEIR CAUSES AND PREVENTION. International Engineering Journal For Research & Development, 6(ISPCIEI), 2-2.

